



SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA NOMUTANOSIBLIK LARI

PhD Ismatov Xolbuta Begmatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0003-8884-1049
xolbuta.ismatov@soliq.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy mazmuni va yuzaga kelish iqtisodiy shart-sharoitlari soliq-byudjet tizimini samaradorligini ta'minlash hisoblanadi. Har qaysi mamlakatning iqtisodiy siyosatida soliq siyosati o'ta muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi.

Kalit so'zlar: soliq, soliq munosabatlari, soliq siyosati, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, soliq imtiyozlari, soliq siyosati yo'nalishlari, davlat byudjeti, soliq ma'murchiligi, soliq yuki.

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ДИСБАЛАНСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ

PhD Исмаатов Холбута Бегматович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье научно-теоретическое содержание налоговой политики и стратегии и экономические условия ее возникновения призваны обеспечить эффективность налогово-бюджетной системы. Налоговая политика играет очень важную роль в экономической политике любой страны. Налоговая политика тесно связана с другими видами экономической политики государства и влияет на них. Правильная разработка налоговой политики и определение ее стратегических и тактических направлений – очень актуальный и сложный процесс.

Ключевые слова: налог, налоговые отношения, налоговая политика, стратегия налоговой политики, тактика налоговой политики, налоговые льготы, направления налоговой политики, государственный бюджет, налоговое администрирование, налоговое бремя.

THE MAIN PROBLEMS AND IMBALANCES OF TAX POLICY IMPROVEMENT

PhD Ismatov Kholbuta Begmatovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. In this article, the scientific-theoretical content of the tax policy and strategy and the economic conditions for its occurrence are to ensure the effectiveness of the tax-budget system. Tax policy plays a very important role in the economic policy of any country. Tax policy is closely related to other economic policies of the state and influences them. Correct development of tax policy and determination of its strategic and tactical directions is a very urgent and complex process.

Key words: tax, tax relations, tax policy, tax policy strategy, tax policy tactics, tax benefits, tax policy directions, state budget, tax administration, tax burden.

Kirish.

Davlatning ichki moliyaviy siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liq. Soliq siyosati davlatning boshqa iqtisodiy siyosatining yo'nalishlariga kuchli uzviy bog'liqligi bilan bir qatorda, ularga ta'sir qilib boradi. Soliq siyosatini to'g'ri ishlab chiqish va uning strategik hamda taktik yo'nalishlarini belgilab olish o'ta dolzarb va murakkab jarayon hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va uning samaradorligi baholash o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uning yo'nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish dolzarb masalalardan sanaladi.

Adabiyotlar sharhi.

Jo'rayev (2005) fikricha, g'arb iqtisodchilari soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondashadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi hisoblanadi, deb ta'kidlashadi.

Davlatning soliq siyosati va uning strategik maqsadlari qanday belgilanishi va bo'lishi kerak degan masala klassik iqtisodchi olimlar, jumladan, Kene (1960), ingliz iqtisodchisi Keyns (1993) va boshqalarning ilmiy qarashlarida muhim o'rin tutib kelgan. Ular davlat iqtisodiyotini tartiblashda soliq siyosatini yuritishning turli xil uslublari va yondashuvlari haqida ko'plab bahslar yuritgan, soliq siyosatining bosh maqsadi nimadan iborat bo'lishi lozimligini ko'rsatib berishda, ko'proq soliqlarni undirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Petrinin, Panov, Logunova (1995) esa soliq siyosati va uning strategik mazmunini "soliq qonunchiligidagi korxonalariga soliq to'lashdan qochish imkonini beruvchi bo'shliqlarni aniqlashdan iborat" degan fikrni ilgari suradi.

Dementeva (2009) va Mayburovning (2007) soliq siyosatidagi fikrlari anchayin bir-biriga o'xshash hisoblanadi. Ushbu mualliflar soliq siyosati mazmunini milliy boyliklardan samarali foydalanishga qaratilgan soliq tizimining yaratilishi sifatida baholaydi. Ya'ni ularning fikricha, "soliq siyosati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat milliy boyliklarini jamg'arish va undan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, iqtisodiyot va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirishga ko'maklashuvchi soliq tizimini yaratishga qaratilgan va shu orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti ta'minlanadi".

Dementeva (2009) soliq siyosatining davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

Barulin va boshqalar (2004): "Soliq siyosati – umumiy iqtisodiy siyosatning bir qismi sifatida davlat tomonidan amalga oshiriladigan va soliqlarning fiskal, tartibga solish va nazorat funksiyalarini belgilangan tartibda maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan soliq jarayonlarini boshqarish sohasidagi strategik va taktik chora-tadbirlar majmui", – deb ta'kidlaydi.

Karp (2001) fikricha, soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.


Xalqaro valyuta fondi ekspertlari Silvani va Baerning (1997) bu boradagi ilmiy qarashlari quyidagicha: "soliq ma'murchiligi strategiyasi uzoq muddatli soliq ma'murchiligi operatsiyalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar sifatida baholanib, mamlakatda soliq uzilishi (to'lanishi kerak bo'lgan va kelib tushgan tushumlar o'rtasidagi farq) hajmi va uni kamaytirish uchun qo'llaniladigan choralar keskinligi asosida tayyorlanishi kerak" deya ta'kidlashgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida davlatning soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo’nalishlari bilan bog’liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasi doirasida ko’p qo’llanilib kelinadigan tadqiqot usullaridan keng foydalanilib, tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Soliq tizimini zamonaviy baholashda ikkita asosiy va umumiy tamoyillar birinchi o’ringa chiqadi: iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat. Bu tamoyillar zamonaviy soliq siyosatining asosi bo’lib xizmat qiladi. Stiglis (1997) tomonidan ta’kidlanganidek, “bu muammoning savollari ko’p hollarda yetarlicha o’ziga xos va tushunish uchun qiyin hisoblanadi”. Ushbu jihat soliq siyosatini tushunish uchun asos ekanligini hisobga olsak, muhim amaliy qiziqish chuqur ilmiy o’rganishni talab qiladi. Islohotlarni amalga oshirish ma’lum vaqtni talab qilishini hisobga olib, vaqt o’tishi bilan davomiyligi va cho’zilishiga qarab, qisqa, o’rta va uzoq muddatli soliq islohotlariga ajratiladi, ularning barchasi ularni amalga oshirish algoritmi bilan birlashtirilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Soliq islohotini o’tkazishning shartli algoritmi

Manba: xorijiy tajribani o’rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tushunchalar apparatini shakllantirish mantig’iga asoslanib, “samarali soliq siyosati” atamasi bir-birini uyg’un ravishda to’ldiradigan ikkita jihatni o’z ichiga oladi.



2-rasm. Samarali soliq siyosatini tushunish

Manba: xorijiy tajribani o‘rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ortiqcha soliq yukini baholash asosida iste‘molchi to‘lashga tayyor bo‘lgan narx va haqiqiy narx o‘rtasidagi farq tufayli iste‘molchi tomonidan olingan iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining sof farovonligining ko‘rsatkichi sifatida berilgan iste‘mol foydasi (rentasi) konsepsiyasi nazariyasi yotadi. Soliq to‘lovchilar uchun yo‘qotish bo‘lib, bu iste‘molchining shaxsiy daromadining pasayishiga ta‘sir qiladigan ortiqcha soliq yuki o‘lchanadigan, “Marshall uchburchagi deb ataladigan shtrixlangan AVS uchburchagi maydoniga teng rentaning bir qismi hisoblanadi” (Blaug, 1996).

Iste‘molchining ortiqcha soliq yukini baholash uchun A. Xarberger tomonidan taklif qilingan hisoblash formulasidan foydalanish tavsiya etiladi:

$$U = . Ye * t^2 * P_1 \cdot Q_1$$

bunda (Harberger, 1964):

U — ortiqcha soliq yuki;

Ye – narxi bo‘yicha talabning egiluvchanligi;

t^2 - soliq stavkasining kvadrati;

P_1 - tovarlar (xizmatlar)ning dastlabki narxi;

Q_1 - tovarlarga (xizmatlarga) bo‘lgan talab.

Oxirgi formula juda muhimdir, chunki bu ortiqcha soliq yuki darajasiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlashga imkon beradi. Bularga quyidagilar kiradi: narxi bo‘yicha talabning egiluvchanligi (Ye), shuningdek oshishi bilan ortiqcha soliq yuki tobora ortib boradigan soliq stavkasining kvadrati (t^2).

Samarali soliq siyosatini olib borishning asosiy maqsadi “bozor nosozliklarini” yumshatish maqsadida davlat va xususiy tovarlarni ishlab chiqarish o‘rtasida resurslarni optimal taqsimlashdan iboratdir. Soliq siyosatida samaradorlik va adolat o‘rtasida murosaga erishish doirasida u yoki bu soliq siyosatining yuqoridagi talablarga muvofiqligi darajasini baholashning dolzarbligi oshadi.

Umume‘tirof etilgan samaradorlik mezoni – “jamiyat farovonligi maksimal darajaga yetadigan iqtisodiy resurslar hamda ishlab chiqarilgan tovarlarni maqbul taqsimlash mezoni — bu Pareto maqbulligi mezoni bo‘lib, u resurslarni (tovarlarni) har qanday qayta taqsimlash bir subyektning holatini yaxshilay olmaydigan, shu bilan boshqasining holatini yomonlashtirmaydigan muvozanat holatining maqbul darajasini aniqlashga imkon beradi” (Vidyapina, 2003). Biroq, aslida hech bo‘lmaganda bitta odamning farovonligining yomonlashishiga olib kelmaydigan har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega o‘zgarishlarni amalga oshirish deyarli mumkin emas. Shu munosabat bilan, “Kaldor-Xiksning” (Smolyar, 2013) samaradorlik mezoni eng maqbul ko‘rinadi, unga ko‘ra haqiqiy “Pareto maqbulligi”ga erishish shart emas, agar u potensial bo‘lsa, yetarli, ya‘ni bir shaxslarning foydalari, asosan, boshqalarning yo‘qotishlarini qoplashi va ijtimoiy farovonlikni oshirishi mumkin.

Shuningdek, “adolatli soliq siyosatining eng sodda va ishonchli mezoni daromad va boylikni taqsimlashdagi tengsizlik darajasining pasayishi bo‘lib, uni baholash uchun detsil koeffitsiyenti va “Jinni koeffitsiyenti qo‘llaniladi, soliqdan oldingi va keyingi daromadlar koeffitsiyentlarining umumiy qiymatlarini taqqoslash soliq siyosatining adolat tamoyiliga rioya qilish tengsizligini kamaytirishga ta‘sirini baholashga imkon beradi” (Goncharova, 2010).

Bunda, detsil koeffitsiyenti eng boy odamlarning 10% va eng kambag‘al shaxslarning 10% daromadlarining nisbati sifatida hisoblanadi. Jinni koeffitsiyentini hisoblash uchun jami soliq to‘lovchilarni daromadlari teng ravishda o‘zib boradigan o‘nta teng guruhga bo‘lish va soliq to‘lovchilarning i– guruhi daromadlarining umumiy daromaddagi d_i ulushini aniqlashi kerak.

Daromad va boylik taqsimotining tengsizligi sababli soliq siyosatining adolatligini amaliy baholashning obyektiv qiyinchiliklariga qaramay, detsil koeffitsiyentini hisoblash asosida (10% boy va 10% kambag‘allar daromadlarining nisbati), Jinni koeffitsiyentini (jami soliq to‘lovchilarni daromadlarning o‘sishi bo‘yicha 10 ta teng guruhlarga bo‘linishini hisobga olgan holda) quyidagi formula bo‘yicha hisoblash imkoniyati mavjud:

$$K_g = 110 - 0.2 \sum_{i=1}^{10} d_i$$

bunda:

K_g - Jinni koeffitsiyenti;

d_i - i-guruh daromadlarining umumiy daromaddagi ulushi.

Muammo shundaki, bu zona Lafferning taqiqlangan zonasiga to‘g‘ri kelmaydi, u uning chap tomonida joylashgan bo‘lib, Lafferning so‘zlariga ko‘ra normal zonaga to‘g‘ri keladi: R_1 dan R_2 gacha. Shunday qilib, qo‘shimcha “soliq tuzog‘i” paydo bo‘ladi, bu soliq yukini uning yuqori chegaralaridan ancha pastroqqa o‘rnatishni talab qiladi. Ko‘rib turganimizdek, “fiskal qarama-qarshiliklar zonasi”ning mavjudligi oddiy masshtab zonasining sezilarli darajada torayishiga olib keladi. Soliq siyosati soliq yukini uning yuqori chegarasidan ancha past darajada – “fiskal qarama-qarshiliklar zonasi” ning chap chegarasida, ya‘ni 1-turdagi Laffer nuqtasiga iloji boricha yaqinroq o‘rnatishga qaratilishi kerak.

Optimal soliq yuki — bu soliqning fiskal va tartibga solish funksiyalarining muvozanatli kombinatsiyasini ta‘minlashga, davlat va soliq to‘lovchilar manfaatlarining murosaga kelishiga imkon beradigan soliq undiruvlari darajasidir. Optimal soliq yukining (R_{opt}) hajmi 2.6-rasmdagi fiskal qarama-qarshiliklar zonalarining chap tomonida bo‘lishi kerak, ya‘ni $R_{opt} \leq R_1$ yukiga mos kelishi kerak, chunki R_1 nuqtasining o‘ng tomonida qo‘shimcha soliq tuzog‘ining ta‘siri paydo bo‘ladi. Ushbu maqbul shart davlat soliq siyosatining asosi bo‘lishi kerak. Yukni sezilarli darajada kamaytirish R_1 byudjet uchun xavf tug‘diradi, chunki egri chiziqdan pastga siljish byudjet tushumining yanada pasayishini ta‘minlaydi va yuqoriga siljish maqbul emas, chunki bu iqtisodiyot uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Optimal soliq yukini aniqlash muammosi Laffer nazariyasida o‘z aksini topmasada, garchi 1 va 2-turdagi Laffer nuqtalarini yetarli miqdorda aniqlash muammosi hali ham dolzarb bo‘lib qolsada, zamonaviy yondashuvlar ma‘lum darajada bo‘shliqni to‘ldirishga imkon beradi. Natijada, soliq tizimining isloh qilinishi zarurligi to‘g‘risida signal bo‘lishi kerak bo‘lgan soliq yukining maksimal chegarasiga erishish belgilarini o‘z vaqtida aniqlash zaruriyati yuzaga keladi.

Zamonaviy “ilmiy xulosalar soliq yukining yuqori chegara darajasiga yaqinlashishning quyidagi belgilarini aniqlaydi:

- soliq stavkalarining o‘sishi davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi;

- investitsiyalar, ish o‘rinlari soni qisqaradi va umuman mamlakatning iqtisodiy o‘shish sur‘ati pasayadi;

- soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash darajasi oshadi.

Iqtisodiy nazariya postulatiga ko‘ra, shaxsning soliq yukini baholashda soliq to‘lovlari miqdorini, shuningdek, deklaratsiyalar va hisob-kitoblarni topshirish, soliqlarni undirish, shuningdek boshqa bir qator belgilangan qoidalarni ta‘minlash uchun institutsional xarajatlarni hisobga olish kerak” (Merkulova, 2006).

Krilavning (1995) so‘zlariga ko‘ra, “soliq yuki uning shaxslarning (yuridik shaxslar emas) farovonligiga ta‘siri bilan tavsiflanadi, chunki soliqlarni o‘tkazish ta‘siri tufayli yuridik shaxsning xarajatlari oxir-oqibat tovarlar va xizmatlar xaridorlariga o‘tkaziladi”.

Shuning uchun jismoniy shaxslarga soliq yukini hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$NB_{absol.} = N + I_T ;$$

$$NB_{otnos.} = \frac{H + I_T}{D},$$

bu yerda,

NB_{absol.} – soliq yukining mutlaq ko‘rsatkichi;

NB_{otnos.} – soliq yukining nisbiy ko‘rsatkichi;

N - soliq to‘lovlari miqdori;


I_t - tranzaksion soliq xarajatlari;

D - daromad.

O‘zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish va ochiqligi bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar boshlanishi bilan biznes geografiyasi va iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishlari sezilarli darajada kengayishiga olib keldi.

“Zamonaviy rivojlanish sharoitida ko‘plab mamlakatlar soliq iqlimining o‘ziga xos afzalliklari va davlatning biznes va tadbirkorlik faoliyatiga sodiqligini ko‘rsatadigan ijobiy soliq imidjini shakllantirishga harakat qilmoqdalar” (Chugunova, 2019). “O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ham davlat soliq xizmati organlarining ijobiy imidji va yagona uslubini yaratish asoslari yo‘lga qo‘yildi” (Qaror, 2018).

Globalashuv sharoitida milliy soliq tizimlari transformatsiyasi tashqi omillarning ikki guruhi ta‘siri ostida sodir bo‘ladi: global iqtisodiy omillar va xalqaro soliq muhiti omillari (3-rasmga qarang).



3-rasm. Milliy soliq tizimlariga tashqi omillar ta‘siri

Manba: xorijiy tajribani o‘rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tashqi ta‘sirlarga javob beradigan soliq jarayonlaridagi global tendensiyalar milliy soliq suverenitetidan tubdan uzoqlashishni keltirib chiqardi. Bu o‘zgarish butun dunyo bo‘ylab rivojlanayotgan mamlakatlar soliq tizimida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu o‘zgarishlarga

duch kelgan davlatlar soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishga, ularni dolzarb ehtiyojlar va doimiy rivojlanayotgan raqamli landshaftga moslashtirishga chaqiriladi. Ushbu qayta baholash bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

- hamkor davlatlar soliq organlari o'rtasida muvofiqlashtirish va hamkorlikni mustahkamlash;

- soliq turlarini, stavkalarini, soliq solish bazalarini va ular bilan bog'liq elementlarni tartibga solishni o'z ichiga olgan milliy soliq tizimlarini bosqichma-bosqich moslashtirish va soliqqa tortish tamoyillarini uyg'unlashtirish;

- soliq to'lovchilar o'rtasida moliyaviy va soliq hisobotlariga standartlashtirilgan yondashuvlarni takomillashtirish;

- o'zaro bog'liq bo'lgan global muhitimizning nozik tomonlari bilan kurashish uchun soliq masalalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Jahon iqtisodiy tizimidagi globallashtirish jarayoni xalqaro soliq raqobati deb nomlanuvchi raqobatning alohida shaklini keltirib chiqardi. Ushbu raqobat, birinchi navbatda, qulay soliq stavkalari va soliq tizimini taklif qilish orqali xorijiy kapital, texnologik nou-xau va tajribani jalb qilishga qaratilgan. Yakuniy maqsad soliq tushumlarini oshirish, ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, ish haqini oshirish, bozor infratuzilmasini mustahkamlash va pirovardida butun aholi farovonligini oshirishdan iborat.

Mohiyatan, soliq siyosati milliy daromadning o'sishini rag'batlantirishga, soliq tushumlarini davlat foydasiga ko'paytirishga va rivojlanishni rag'batlantirish uchun soliq tizimining multiplikativ ta'siridan foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, illyustratsiyaga ko'ra, egri soliq nazariyasida A. Laffer "past soliqlar soliq bazasining doimiy o'sishi hisobiga tushumlarning ko'payishiga yordam beradigan masshtabli samarani namoyon bo'lishini kutish mumkin.

Xalqaro soliq raqobati shakllari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:


- soliq siyosatining to'plangan o'z tajribasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or yutuqlariga yo'naltirilishiga asoslangan adolatli soliq raqobati (fair tax competition)" (Gromov, 2020);

- "milliy soliq idoralarining tarixiy shakllangan madaniy an'alarini e'tiborsiz qoldirish, soliq solishning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalarini, shuningdek soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida daromadlarni yashirishga qaratilgan harakatlarni e'tiborsiz qoldirish natijasida yuzaga kelgan adolatsiz soliq raqobati (harmful tax competition)" (Sbornik, 2017). Soliqlarning ikki tomonlama tabiati tufayli soliq siyosati choralarining samaradorligini baholash muammolari davlat va soliq to'lovchilar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi kerak, chunki ular obyektiv ravishda har xil tabiatga ega va ba'zan ularni hal qilishning tubdan farq qiladigan usullariga ega. "Bir qator tadqiqotlar natijalarini o'rganish ushbu sohada baholashga to'sqinlik qiladigan muammolar guruhlarining uchta asosiy guruhini ajratishga imkon beradi" (Mayburov, 2010):

Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini kuchaytirish foydasiga balansning o'zgarishi qonuniy biznes uchun soya komponenti foydasiga sharoitlarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Binobarin, ushbu jarayon tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibiga, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi Kodeksga bir qator muvozanatli o'zgartirishlar kiritilishi bilan amalga oshirilishi kerak:

- davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun aniq va oshkora mezonlarni belgilash (yuridik shaxsni tashkil etish tartibi buzilganligi munosabati bilan, diskvalifikatsiya qilish to'g'risidagi qabul qilingan qaror va yuridik shaxsni ta'sis etish huquqidan mahrum qilish munosabati bilan hujjatlarning amaldagi Qonunchilik talablariga mos kelmasligi);

I - guruh - Soliq to'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish tartib-taomillari sifatini baholashning mavjud vositalarining nomukammalligi



4-rasm. Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish muammolari va ularni hal qilish yo'llari

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

- davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning yagona reyestriga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritilishini lozim darajada nazorat qilishni ta'minlash;
- yagona standartlarga asoslangan tadbirkorlik subyektlarining idoralararo axborot bazasini onlayn tarzda yaratish; — ustav kapitali miqdorining sof aktivlar summasi (hisobot davri) tengligi prinsipi asosida faqat pul ekvivalentida davlat ro'yxatidan o'tkazilganda ustav kapitalini shakllantirish imkoniyatini belgilash;
- hujjatlarda yuridik shaxs ma'lumotlari (manzili, kontaktlari va boshqalar) tafovuti aniqlangan taqdirda tadbirkorlik subyekti faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish.
- ma'muriy tartibda tugatilgan yuridik shaxslarning sobiq muassislariga yangi tashkilotlar tashkil etishda 3-yilgacha ta'sischi sifatida qatnashish huquqidan mahrum etish imkoniyatini nazarda tutish.

Muammolarning ikkinchi guruhi soliq to'lovchilarga quyidagi yo'nalishlarda soliq xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha soliq organlarining ish qoidalarini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq:

- soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish uchun soliq to'lovchilar uchun qulay sharoitlarni takomillashtirish;
- soliq xizmatining ijobiy obro'sini yaratish;
- soliq madaniyatini shakllantirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun juda ko'p ishlar qilingan, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning joriy etilayotgan kontaktsiz shakllari keng qo'llanilmoqda ("hozirgi kunda O'zbekistonda 50 turdagi interaktiv xizmatlar joriy etilgan, 41 turdagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ishga tushirilgan, 100% soliq hisobotlari elektron shaklda taqdim etilmoqda va hokazo), buning natijasida elektron soliq xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 95% gacha yetkazilgan" (Kudbiyev, 2022). Shunday qilib,

soliq hisobotini telekommunikatsiya kanallari orqali taqdim etish tartibini takomillashtirish “soliq to‘lovchilar bilan ishlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu hisobotlarni ixtiyoriy ravishda topshirish (99,1%) va soliqlarni ixtiyoriy to‘lash (95,8%) yuqori darajasini qo‘llab-quvvatlaydi” (Kudbiyev, 2022).

Soliq organlari bilan ishlashning eng qiyin jihatlaridan biri — bu soliq to‘lovchilarning murojaatlari bilan tizimli ishlarni tashkil etishdir, bunda asosiy muammo tushayotgan so‘rovlarning noto‘g‘ri shakllanishidir. Shu munosabat bilan soliq organlari tomonidan o‘quv va konsalting audio va video materiallarini muntazam ravishda tarqatish, tematik davra suhbatlari, seminarlar, treninglarda faol ishtirok etish va ommaviy axborot vositalarida maqolalarning muntazam nashr etilishini ta‘minlash zarur. Hozirgi vaqtda soliq organlari soliq to‘lovchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish doirasida faoliyat turiga qarab soliq rejimini tanlash imkoniyatini beruvchi “Soliqchi-ko‘makchi” (soliq to‘lovchining yordamchisi) tamoyili asosida tizimli ish olib bormoqda. Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali eksterritoriallik tamoyillariga asoslangan manzilli ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Inspeksiya xodimlarining ijobiy psixologik kayfiyatini va soliq xizmatlarini ko‘rsatishga tayyorligini oshirish maqsadida xodimlarni soliq to‘lovchilar bilan ishlashning psixologik ko‘nikmalariga o‘rgatish tadbirlarini tashkil etish roli ortib bormoqda.

Xodimlarning stressga chidamliligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro munosabatlarda ziddiyat darajasini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Shunday qilib, soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan soliq organlari ishining quyidagi asosiy tadbirlari amalga oshirildi:

- soliq organlarining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish (kadrlar malakasini oshirish va oshirish, shuningdek xodimlarni moddiy rag‘batlantirish choralari);

- soliq to‘lovchilar uchun soliqlarni avtomatlashtirilgan hisob-kitobga bosqichma-bosqich o‘tkazish orqali soliq xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish. Masalan, 2022-yilda tajriba doirasida Xorazm viloyatida (Farmon, 2021) pilot loyihani amalga oshirish yakunlari bo‘yicha soliq organlari soliq hisobotini bepul hisoblab, shakllantiradigan tartib o‘rnatildi:

- mol-mulk solig‘i bo‘yicha - Kadastr agentligi organlarining ma‘lumotlari asosida;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va aylanmadan olinadigan soliq bo‘yicha elektron hisobvaraqa-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari ma‘lumotlari, shuningdek soliq organlarida mavjud bo‘lgan boshqa ma‘lumotlar asosida.

2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va hisob-kitoblarni shakllantirishni avtomatlashtirish darajasi 86% darajasida ta‘minlandi. Kelgusida davlat soliq xizmati organlari ushbu yangilikni qolgan soliqlar bo‘yicha bosqichma-bosqich tarqatishni nazarda tutadi.

- tushuntirish ishlarini olib borish va soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini oshirish masalalari bo‘yicha jamoatchilik vakillari va professional jamoalar (SSP, auditorlik va buxgalteriya uyushmalari va boshqalar) bilan faol hamkorlik qilish;

- soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va soliq to‘lovchilar soliq organlari faoliyatining boshqa jihatlarini bo‘yicha fikr-mulohaza tizimini (shu jumladan so‘rovnomani) rivojlantirish.

Uchinchi toifadagi masalalar mahalliy soliqlarni boshqarishga taalluqlidir, chunki ularning miqdori iqtisodiy sharoitlar yoki soliq to‘lovchilar faoliyatining xarakteriga ta‘sir qilmaydi. Shu munosabat bilan hududiy va mahalliy soliqlarni soliq ma‘muriyatchiligining quyidagi dolzarb muammolarini hal qilishni ta‘minlash maqsadga muvofiqdir:

- ro‘yxatga olish organlari bilan axborot aloqalarining yetarli darajada emasligi;
- uy-joy sektorini qurish uchun ko‘p sonli hududlarni noqonuniy egallab olish, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator muammolar tufayli mulkdorlar

to'g'risida rasmiy ma'lumotlarning yo'qligi sababli yerlarni soliqqa tortishning to'liq qamrovi qiyinligi;

- ko'chmas mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazishga majburlash mexanizmlarining nomukammalligi tufayli ham ijro etuvchi hokimiyat organlari, ham aholining motivatsiyasi pastligi;

- soliq to'lovchilarga manzillarini o'zgartirganda (yashash joyi va biznes joyi) xabarnomalarni yetkazishdagi uzilishlar.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda soliq organlari tuzilmasini takomillashtirish muammoli hududlarda sa'y-harakatlarni jamlash, vertikal va gorizontal boshqaruv tizimini yaratish, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasini tashkil etish (Qaror, 2019), qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini bevosita hududiy boshqarmalarda markazlashtirish (Buyruq, 2020), eksterritoriallik tamoyillari asosida soliq xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, soliq organlari xodimlarining mehnatini oqilona tashkil etish va kasbiy vakolatlarini oshirish uchun muhim shartdir.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda davlatning soliq siyosati va uning strategik va taktik yo'nalishlarini amalga oshirishdagi muammolarning yechimlari va mavjud mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida tadqiqot ishimizning ilmiy yangiliklarini o'zida aks ettiruvchi quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi: ya'ni, (1) yillik byudjet parametrlarini tasdiqlash va u orqali har yili ma'murchilikka kiritiladigan tez-tez o'zgarishlar o'rniga, o'rta va uzoq yillarga mo'ljallangan byudjet daromadlari, soliq siyosati strategiyasini tasdiqlab borish, bunda, yil davomida qabul qilinadigan qonun, farmon, qarorlar bilan soliq siyosati va ma'murchiligiga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va yangiliklar yilning turli oylarida emas, faqat yilning boshidan (yoki 1-iyuldan kiritilishi) aniq o'zgarmas sanasini Soliq kodeksi bilan belgilab qo'yish, yangiliklarni dastlab ma'lum sohadan, undan keyin keng jabhada joriy etish, (2) soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirishda soliq yuki va soliq rejimlarini birxillashtirish, shuningdek, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, (3) mahalliy byudjetlar mustaqilligini yanada oshirish, jumladan soliq turlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalarni yuqoridan pastga belgilab berishdan bosqichma-bosqich voz kechgan holda, quyi darajada vakolatini kengaytirish, (4) soliq siyosati strategiyasini samarali realizatsiya qilishda (yashirin iqtisodiyot ko'lamini jilovlashda) – keng jamoatchilikni jalb qilish, rag'batlantirish institutlarini yanada kengaytirish, shuningdek “shubhali operatsiya” vaji ostidagi tadbirkorlarga bildiriladigan e'tirozlarni qonun normasi bilan aniq belgilab qo'yish, (5) soliq ma'murchiligi strategiyasini amalga oshirishda – soliq organlari strukturasi raqamlashtirish natijalari bilan bosqichma-bosqich va shu kabi soliq siyosatining strategik va taktik mazmundagi choralarni amalga oshirish O'zbekiston soliq tizimida davlatning soliq siyosatining mazmunini ilmiy-amaliy jihatdan takomillashuviga xizmat qilishi mumkin.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Barulin S.V., Makrushin A.V., Timoshenko V.A. (2004) Nalogovaya politika Rossii. – Saratov: Satellit, S. 24-25.

Blaug M. (1996) Ekonomicheskaya mysl v retrospektive. –M.: Delo Ltd, — 687 s.

Buyruq (2020) Davlat soliq qo'mitasi Raisining 19.06.2020-yildagi “Davlat soliq xizmati organlari tuzilmasiga o'zgartishlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 151-son buyrug'i.

Carlos Silvani and Katherine Baer (1997) Designing a Tax Administration Reform Strategy: Experiences and Guidelines, IMF –36 pages.

Chugunova A.A. (2019) Povysheniye imidja i prestija raboty v nalogovyx organax kak vajnyy element silnoy sistemy nalogooblojeniya. J. Molodoy uchenyy. — № 42 (280). – S. 136-138. elektronnyy resurs – URL: <https://moluch.ru/archive/280/63108/> (data obraçeniya: 11.01.2023).

Demytyeva N.M. (2009) *Nalogovaya politika gosudarstva*. https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.

Farmon (2021) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi "Solliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6307-son Farmoni*.

Goncharova T.M. (2010) *Vыsshaya matematika. Prilojeniya opredelenного integrala: uchebno- metodicheskoye posobiye dlya studentov ekonomicheskix spetsialnostey*. MGUP. – 32 s

Gromov V.V. (2020) *Nalogovaya konkurensiya v Rossii na raznyx etapax razvitiya nalogovoy sistemy // Finansovyy jurnal. T. 12. № 1. S. 41–57*.

Harberger A. (1964) *Taxation, Resource Allocation and Welfare*. In: *The Role of Direct and Indirect Taxes in the Federal Reserve System*. Princeton Univ. Press for NBER at Brookings Inst.

Ismatov X.B. (2023) *Solliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati*. – Toshkent.

Jo'rayev A., Safarov G'. (2005) *Solliq nazariyasi. O'quv qo'llanma*. – T.: Iqtisod-moliya, 48-bet.

Karp M.V. (2001) *Nalogovyy menedjment. Uchebnik dlya vuzov*. – M.: Yuniti-dana, – 39 s.

Kene (1960) *Izbrannyye ekonomicheskkiye proizvedeniya*. – M.: Sosekgz.

Keyns Dj.M. (1993) *Obuyaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg*. – M.

Krilav R. (1995) *Konsepsii raspredeleniya nalogovogo bremeni // Posobiye po nalogovoy politike*. Vashington: MVF, S. 43.

Kudbiyev Sh.D. (2022) *O'zbekiston Respublikasi davlat solliq qo'mitasi raisi Sh.D. Kudbiyevning MDH mamlakatlari solliq xizmatlari rahbarlarining Muvofiqlashtiruvchi kengashi doirasidagi nutqi materiallaridan*. Minsk shahri. 2022-yil 5-6-noyabr.

Mayburov I.A. (2007) *Naloga i nalogooblojeniya. Uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayuyxysya po spetsialnostyam*. Pod red. I.A.Mayburova. – M.: Yuniti-dana, – 655 s.

Mayburov I.A. (2010) *Nalogovaya politika teoriya i praktika*. M.: Yuniti-Dana, S. 63.

Merkulova T.V. (2006) *Institut naloga*. Xarkov, S. 56.

Petrinin Yu.Yu., Panov M.I., Logunova L.B. (1995) *Nalogovaya politika // Ekonomika. Slovar po obuyestvoznaniyu*. – M.: KDU.

Qaror (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat solliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-son qarori*.

Qaror (2019) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.04.2019-yildagi "Davlat solliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-son qarori*.

Sbornik (2017) *Sbornik statey IX Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii molodyyx nalogovedov. Aktualnyye problemy nalogovoy politiki: (Minsk – Moskva – Yekaterinburg – Irkutsk – Vladivostok, aprel 2017 g.) / Shkola ekonomiki i menedjmenta. Vladivostok: – 359 s*.

Smolyar M.Ya. (2013) *Sovershenstvovaniye otsenki effektivnosti i rezultativnosti pri planirovaniy programmnyyx rasxodov byudjeta*. J. [Nauka o cheloveke: gumanitarnyye issledovaniya](#) Rossiya, g. Omsk, str. 87-93.

Stiglis Dj. (1997) *Ekonomika gosudarstvennogo sektora*. M.: MGU, INFRA-M, S. 471.

Vidyarina V.I., Dobrynina A.I., Juravlevoy G.P., Tarasevicha L.S. (2003) *Ekonomicheskaya teoriya: Uchebnik / Pod obuy. red. akad. V.I. Vidyarina, A.I. Dobrynina, G.P. Juravlevoy, L.S. Tarasevicha*. –M.: INFRA-M, -714 s.